

MILLIY TARBIYA OILADAN BOSHLANAR

Yodgorova Ma'mura Orifovna

Bux MTI assistenti

Baxriddinova Shaxzoda Umrzoq qizi

118-22 MSM guruh talabasi

Salomova Nafisa Murodilloyevna

BuxMTI 116-22 MSM guruh talabasi

Oila erkaklar va ayollarning teng huquqligi, oila uchun birdek javobgarligi asosida quriladigan, harqanday odamga parvoz uchun qanot beradigan qo'rg'ondir. Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi, urf-odatlar, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar saqlanadi va rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va ma'naviy hayot poydevori qo'yiladi va mustahkalanadi. Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas makondir. Oilaning har tomonlama mustahkamligi ota-onaga bog'liq bo'lsa, uning kelajagi uchun yoshlar mas'uldir. Oila bola tarbiya oladigan eng birinchi jamoa bo'lib, bola unda axloqiy qoidalar, urf-odatlarni bilib oladi, dastlabki axloqiy tajriba orttiradi. Ayni paytda oilaviy hayot va oilaviy tarbiya o'zining milliy xususiyatlariga ham ega. Bu esa, o'z navbatida, oilaviy tarbiya usullari va mazmunining umumiy hamda xususiy tomonlari rivojida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Har bir inson yoshlikda ona qo'lida tarbiyalanadi. Ona allasi bilan birga bola qalbiga ona muhabbati singadi va onaning erkalatishlari bir umr yodda qoladi, oilada bola yaxshi bilan yomonning farqini ajratishni o'rganadi. Oila tarbiyasi orqali bola ongida umum insoniy va milliy qadriyatlar, yashashdan maqsad haqida dastlabki tasavvurlar hosil bo'ladi. Shuning uchun ham yurtboshimiz ayollar va yoshlarning jamiyat hayotida tutgan rolini oshirish, ularning turmushini yaxshilash uchun oilada, jamiyatda moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratish, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvatlash, mexnatini yengillashtirish chora-tadbirlarini belgilash, salomatligini mustahkamlash, ilmiy, ma'naviy-madaniy saviyasini yuksaltirish, jamiyatda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarda ularning imkoniyatlari, qobiliyatlari va salohiyatlaridan samarali foydalanish, farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirish masalasiga jamiyatning diqqat e'tiborini qaratmoqda. Inson aslida baxt va ezgulik uchun dunyoga keladi, shu orzu umid bilan yashaydi. Insonning inson bo'lib shakllanishida hayotda o'z o'rnini topishi, el yurt ichida izzat hurmatga ega bo'lishi, yuksak odob-axloq qoidalarini o'zida mujassam etishida oila asosiy poydevordir. Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi, urf-odatlar, axloqiy-ma'naviy qadriyatlar saqlanadi va rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va ma'naviy hayot poydevori qo'yiladi va mustahkalanadi. Yurt boshimiz aytganlaridek, xalqimiz qadimdan oilani muqaddas deb bilgan. Axir oila ahil va totuv bo'lsa jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi.

O'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga nisbatan bag'rikenglik, mehridaryolik, o'ta fidoyilik o'zbeklargagina hos xususiyatdir. Shu boisdan ham ota-onalarimiz farzandlarning baxti va kelajagi uchun qayg'uradi. Ularning puxta bilim olishlari, qiziqishlari bo'yicha kasb-

hunar egallashlari, odob-axloq qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari uchun mavjud imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki oilada bolani to'g'ri tarbiyalash-mustahkam poydevorli jamiyat barpo etilishining garovidir.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda uning psixologik qonuniyatlarini o'rganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik hamkorlik va uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi

Oilada, shujumladan, o'zbek oilalarida farzandning dunyoga kelishi bilan bog'lik marosimlar va rasm-rusmlar mavjud bo'lib, ularning har biri yaxshi niyatlar bilan amalga oshiriladi. Oilada farzand tarbiyasida sinalgan tarbiyaviy metodlaridan biri- na'munadir. Ota-ona atrofdagi katta yoshdagi kishilarning hatti-harakatlari, yurish-turishlari, muomalasi, o'zlarini tutishlari jamiyatga, tabiatga munosabatlari na'muna sifatida juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. O'tmish allomalar, avlod-ajdodlardan faxrlanish, ular merosini mukammal o'rganish, olg'a surilgan hayotiy g'oyalardan jamiyatimiz gullab-yashnashi yo'lida foydalanish, davlat ramzlarining mohiyatini anglash aynan oilada amalga oshirila boshlanadi. Shu boisdan ham birinchi prezidentimiz I.A.Karimov "Oila mamlakatning, demak, Vatanning buyuk kelajagini ulg'aytiruvchi muqaddas beshik"-deb bejizga aytmaganlar. Chunki, ota-ona oilada farzandni tejamkorlikka, tadbirkorlikka, tashabbuskorlikka o'rgatadi, dunyoviy ilmlar va hayot ilmidan voqif etadi, kasb-hunar sirlarini qunt bilan egallashlari uchun shart-sharoit yaratib beradi, ularning hayot so'qmoklarida adashib qolmasligi va ravon yo'ldan borishlariga yordam beradi.

Shunday qilib, oila tarbiyaning asosiy maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda tarbiyaning qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq. Oiladagi har bir kishishining o'z burch va vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishi oila mustahkamligi, jamiyat farovonligiga erishishning muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kamolova, M. X., Kamalova, M. X., Bozorova, S. N., & qizi Ubaydulloyeva, S. L. (2023). XALQ PEDAGOGIKASI VA XALQ MUTAFFAKKIRLARINING PEDAGOGIK G'OYALARI. SCHOLAR, 1(31), 151-155.
2. Ёдгорова, М. О. (2018). Современное инженерное образование и инновации в подготовке инженеров. Молодой ученый, (9), 147-149.
3. Ёдгорова, М. О. (2012). Современные требования к преподавателю профессионального колледжа. Молодой ученый, (1-2), 86-87.
4. Ёдгорова, М. О. (2018). Информационные технологии в учебном процессе на смену традиционной методике. Молодой ученый, (9), 149-152.
5. Baxtiyorovna, D. M. (2022). Food safety management. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 8, 64-67.
6. Bakhtiyarovna, D. M., Shakhidovich, S. S., Khalilovich, M. K., Mukimovna, A. Z., & Karimovna, Y. N. (2020). Investigation Of The Effect Of Plant Extracts On The

Rheological Properties Of Wheat Dough. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 2(09), 41-47.

7. Glushenkova, A. I., Sagdullaev, S. S., & Davlyatova, M. B. (2017, September). Oil cake of sesamium Acad. In S. YU. Yunusov institute of the chemistry of plant Substances AS RUz «12 th International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds (p. 202).